



## SO'FI OLLOYORNING "SABOT UL-OJIZIN" ASARIDAGI SONLARNING QO'LLANISHI

**Xushanov Alisher Oydin o'g'li**

Ajiniyoz nomidagi Nukus davlat pedagogika instituti

Turkiy tillar fakulteti 3-bosqich talabasi

<https://doi.org/10.5281/zenodo.6693004>

### ARTICLE INFO

Received: 28<sup>th</sup> May 2022

Accepted: 02<sup>nd</sup> June 2022

Online: 05<sup>th</sup> June 2022

### KEY WORDS

*Morfalogiya,  
sonlar, shakldoshlik,  
ma'no, asar, uslubiy  
ma'no, sinonim, antonim,  
sanoq son, tartib son.*

### ABSTRACT

*Ushbu maqolada biz So'fi Olloyorning "Sabot ul-ojizin" asaridagi sonlarning qo'llanilishi. Sonlarning morfalogik xususiyatlari. Sonlardagi shakldoshlik xususiyatlari ularning uslubiy ma'nolarini o'rganilganligini ko'rib chiqamiz.*

Til sistemasida ma'lum guruh so'zlar borki, ular mavhum son, miqdor, sanoq, to'g'rirog'i, narsa-predmetning sanash, joylashish, bajarilish tartibini bildiradi. Shuni qayd qilish joizki, turkiy tillarda son sistemasi, har qaysi xalq tilida bo'lgani kabi birdaniga emas, asta-sekin shakllanib, o'zgarib kelgan. Bunga ko'hna manbalar tilini tadqiq etish jarayonida amin bo'lish mumkin. Zero, yozma obidalarda sonlarning bir necha turlari qo'llanilgan. Bu esa, birinchidan, sonlarni imlo va talaffuz me'yorlarini aniqlash, ikkinchidan, ularning etimologiyasini yoritishda qo'l keladi.

Tilning o'rganilish jarayoni mashaqqatli shu bilan birga juda qiziqarli bo'lgan jarayondir. Masalan qadimgi turkiy tilda "nol" soni yo'q. Sanoq "bir"dan boshlanadi. Inson tug'ilgan chog'da bir yosh sanalgan, ona qornidagi davri qo'shib hisoblangan. Bir yil o'tgach, bola ikkiga to'lgan.

VI-X asrlardagi yozma yodgorliklarda songa oid xususiyatlardan biri, bunda kichik sonlar oldin, katta sonlar keyin keladi: yäti otuz - 27, bir qirq - 31, yüz baş älig - 145, toquz on baş - 95. Sanashning bu tartibi XI asrgacha amal qilgan, XI asrdan keyin esa hozirgidek qo'llangan. Qadimgi turkiy manbalarda qayd etilgan sanash tizimi bilan birga, boshqa sanash usuli ham amal qilgan. Ya'ni katta son oldin, kichik son keyin keladi. Bunda tarkibli sanoq son qismlari III shaxs egalik shaklidagi artuqi so'zi yordamida bog'lanadi: otuz artuqi tort - 34, qirq artuqi baş - 45, bir tümän artuqi yeti biy - 17 ming. Yodnomalarda 102, 190, 250, 300, 350 kabi sanoq sonlar quyidagi tartibda hosil qilinadi: avval birlik, keyin yuzlik, minglik va boshqalar keladi: yüz iki - 102, iki yüz elig - 250, dört yüz toquz on altı - 496, Xalq orasida "So'fi Ollayor" nomi bilan mashxur "Sabot ul-ojizin" asari



Mavarounnahr diyorida XX asrga qadar madrasalarda darslik sifatida o'qitib kelingan. Chunki bu asarning ifoda uslubi sodda, ohangi turkona, badiiy saviyasi yuksak asarlardan biri.

Ushbu maqolamizda So'fi Ollayorning "Sabot ul-ojizin" asaridagi sonlarning qo'llanilishi va sonlardagi shakldoshlik xususiyatlarini ko'rib chiqamiz. Omonimlar har xil stilistik maqsadlarda hozirgi turkiy tillarda qanday ishlatilayotgan bo'lsa, yozma obidalarda ham xuddi shunday qo'llanilgan. Biroq omonimlarning qadimgi tilida ishlatilishi hozirgiga nisbatan ancha chegaralangan. Bu bilan omonimlar keyingi davr til hodisasi ekan, degan xulosaga kelmaslik kerak. Hozirgi turkiy tillar lug'at boyligida mavjud omonimlar qadimda ham aks etgan, lekin chegaralangan holda ishlatilgan: bar I "bor, mavjud", bar- II "bormoq" (KT), adin I "boshqa" (TT), adin- I "o'zgartirmoq, to'g'irlamoq" (Mon), Demak, qadimgi turkiy tilda omonimlarning ishlatilishi o'sha til leksik qatlamining rang-barangligidan dalolat beradishini ko'rdik.

So'fi Ollayorning "Sabot ul-ojizin" asarida esa omonimlik hodisasi sonlarda ifodalagan joylarini ko'rishimiz mumkin. Masalan:

Qo'yar kajlikka doim nafi bad yuz,  
Qachon o't tuz yonar yoborsang o'ttuz  
Ushbu misrada birinchi o'ttizda o't bilan  
tuz manosida keying o'ttiz so'zida esa o'ttiz  
son ma'nosida kelib turibdi.

Erur nafsing dimog'I turfa ellik,  
Qachon ellik qilur, yoborsang ellik.

Yuqoridagi misrada ham sonlar o'rtasidagi shakldoshlikni ko'rishimiz mumkin. Birinchi ma'nosida har eldan, har joydan ma'nosida ikkinchi kelgan ellik so'zida esa senga ellik qiladi ellik (son) marta yolvorsang deydi. Keyingi misrada ham ushbu shakldoshlik qo'llanilgan.

Agar nafsing sani yetmish boshingdin,  
Na bo'lg'ay foyda yetmish yoshingdin.

Ushbu misralarda yetmish soni va nafsning inson boshiga yetishi haqida so'z etilgan, nafs insonning boshiga yetsa sen yetmish yoshda bo'lganingdan nima foyda tarzida izohlasa bo'ladi.

Agar nafning muroding izlamaksan,  
Agar saksonga umring yetsa sakson

Agar kundan agarchi xavfi yo'qsan,

Agar to'qsong'a kirsang, ko'ngli to'qsan

Bu misrada ham son bilan fe'l so'z turkumi o'rtasida shakldoshlik hodisasi kuzatilgan.

Xulosa qilib shuni aytishimiz mumkinki, So'fi Ollayorning "Sabot ul-ojizin" asaridagi sonlar hozirgi o'zbek adabiy tilidagi sonlardan tubdan farq qilmaydi. So'fi Ollayor o'z asarida sonlar o'rtasidagi shakldoshlik xususiyatini yuqori darajada chiroyli usullar orqali ochib bergan. U bir so'zning bir necha manolarini turkiy til orqali bir misraga joylashtirgan. O'sha davr til xususiyatlarini sonlarning tuzilishni o'z asarida ko'rsatib bergan.

### References:

- 1 Абдурахмонов Ф., Рустамов А. Қадимги туркий тил. –Т.: Ўқитувчи, 1982.
2. Abdurahmonov G., Shukurov Sh., Mahmudov Q. O'zbek tilining tarixiy grammatikasi. – T.: O'zbekiston faylasuflar milliy jamiyati, 2008.
3. Малов С. Памятники древнетюркской письменности. Тексты и исследования. -М.-Л., 1951.



4. Rahmonov N., Sodiqov Q. O'zbek tili tarixi. - T.: O'zbekiston faylasuflari milliy jamiyati, 2009.
5. Sanaqulov U. O'zbek yozma adabiy tili fonetik, morfologik me'yorlarning ilk shakllanishi va taraqqiyoti bosqichlari. - T.: Navro'z, 2015.
6. Содиқов Қ. Туркий ёзма ёдгорликлар тили: адабий тилнинг юзага келиши ва тикланиши. -Тошкент, 2006.
7. Фозилов Э. Ўзбек тилининг тарихий морфологияси. -Т.: ФАН, 1965.